

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLARNI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS FOR THE ESTABLISHMENT OF ISLAMIC BANKS IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT

[1]Omonov Akrom Abdinazarovich

[1]*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrasi professori.* ***ORCID:*** *0000-0001-7302-8627*
G-mail: *akromomonov66@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekistonda islomiy banklarni tashkil etishning iqtisodiy zarurati, huquqiy va institutsional asoslari hamda ularni rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda islomiy bank faoliyatini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2026-yilda qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining bank tizimini diversifikatsiya qilish va moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Islomiy banklarning an'anaviy tijorat banklaridan farqli jihatlari, ularni tashkil etishning institutsional modellari, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb qilish va real sektorni moliyalashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Xalqaro islomiy moliya standartlari va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekistonda islomiy banklarni bosqichma-bosqich tashkil etish, ularning faoliyatini tartibga solish, korporativ boshqaruv va prudensial nazorat mexanizmlarini rivojlantirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Tahlillar natijasida islomiy banklarni milliy bank tizimiga integratsiya qilish, institutsional infratuzilmani takomillashtirish va islomiy moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the economic necessity, legal and institutional foundations for the establishment of Islamic banks in Uzbekistan, as well as the prospects for their development. It highlights the reforms being implemented to introduce Islamic banking in the country, particularly the significance of legislative acts adopted in 2026 for diversifying the banking system and expanding access to financial services. The study analyzes the distinctive features of Islamic banks compared with conventional commercial banks, institutional models for their establishment, and their potential to mobilize financial resources and finance the real sector of the economy. Drawing on international Islamic finance standards and the experience of foreign countries, the article substantiates approaches to the phased establishment of Islamic banks in Uzbekistan, the regulation of their activities, and the development of corporate governance and prudential supervision mechanisms. Based on the analysis, the study develops scientific proposals and practical recommendations for integrating Islamic banks into the national banking system, improving institutional infrastructure, and developing the Islamic financial services market.

Kalit so‘zlar: **Keywords:**	❖ *islomiy bank, islomiy moliya, bank tizimi, institutsional islohotlar, islomiy darcha, moliyaviy resurslar, bank nazorati, moliyaviy xizmatlar, investitsiya, moliyaviy barqarorlik.* ❖ *islamic banking, Islamic finance, banking system, institutional reforms, Islamic banking window, financial resources, banking supervision, financial services, investment, financial stability.*

Kirish.

Jahon moliya tizimida islomiy moliya institutlarining rivojlanishi bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, muqobil moliyalashtirish manbalarini shakllantirish hamda moliyaviy resurslarni real iqtisodiyotga yo‘naltirishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Islomiy bank faoliyatining an’anaviy bank tizimidan asosiy farqi moliyaviy munosabatlarning foizli qarz berishga emas, balki savdo, ijara, sheriklik va foyda hamda risklarni taqsimlash tamoyillariga asoslanishidadir. Bunday yondashuv moliyalashtirish jarayonida real aktivlar va iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda islomiy banklarning faoliyati faqat diniy tamoyillarga asoslangan moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish bilan chegaralanmaydi. Ular moliyaviy vositachilikni rivojlantirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda investitsiya resurslarini safarbar etishda ham ishtirok etadi. Shu bilan birga, islomiy banklarning barqaror faoliyat yuritishi tegishli huquqiy baza, samarali korporativ boshqaruv, prudensial nazorat va islomiy moliya standartlariga rioya etilishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar mavjudligini talab etadi [1].

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilish, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va iqtisodiyotning investitsion ehtiyojlarini qondirish sharoitida islomiy bank faoliyatini joriy etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, islomiy moliyalashtirish vositalaridan foydalanish an’anaviy bank mahsulotlariga muqobil xizmatlarni shakllantirish, moliyaviy resurslar bazasini diversifikatsiya qilish va yangi investorlarni jalb etish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Mazkur yo‘nalishda 2026-yil 27-martda qabul qilinib, 2026-yil 29-iyunda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1126-sonli Qonuni muhim huquqiy asos bo‘ldi. Ushbu Qonun bilan islomiy bank faoliyatini amalga oshirish, islomiy moliya standartlarini qo‘llash, tegishli bank operatsiyalarini tashkil etish va ularni tartibga solishga doir normalar belgilandi [2]. Shuningdek, islomiy moliya operatsiyalarining iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda soliqqa tortish tartibining huquqiy asoslari shakllantirildi. Bu islomiy moliyalashtirish instrumentlarini amaliyotga joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim soliq muammolarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [3]. Biroq islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish ushbu banklarning samarali tashkil etilishi va rivojlanishini to‘liq kafolatlamaydi. Buning uchun tegishli institutsional infratuzilmani shakllantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni ta’minlash, likvidlilikni boshqarish instrumentlarini rivojlantirish va prudensial nazorat tizimini takomillashtirish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etishning institutsional asoslarini tadqiq qilish, xalqaro tajribani milliy bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish va ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etishning mavjud huquqiy va institutsional asoslarini o‘rganish, ularning

rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda milliy bank tizimida islomiy moliyaviy xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Islomiy bank faoliyatining nazariy va institutsional asoslari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarda islomiy moliyalashtirish tamoyillari, banklarning moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni alohida e’tiborga olingan. Shu bilan birga, islomiy banklarni tashkil etishning huquqiy va institutsional shart-sharoitlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliya bozori tuzilishi va davlat tomonidan tartibga solish tizimiga qarab farqlanishi ta’kidlanadi.

Islomiy moliya nazariyasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan M.U. Chapra islomiy moliya tizimini iqtisodiy adolat, risklarni taqsimlash va moliyaviy operatsiyalarning real iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan. Uning Towards a Just Monetary System nomli asarida moliya tizimining barqaror rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarda adolat va mas’uliyat tamoyillariga rioya etilishi bilan bog‘liqligi asoslab berilgan [4].

Z. Iqbal va A. Mirakhor islomiy moliya tizimining nazariy asoslarini tadqiq etib, moliyaviy bitimlarning aktivlar bilan ta’minlanishi, risklarni taqsimlash va shartnomaviy munosabatlarning shaffofligini islomiy moliyaviy vositachilikning muhim xususiyatlari sifatida ko‘rsatganlar. Mualliflarning fikricha, islomiy moliya institutlarining samarali faoliyat yuritishi tegishli huquqiy, institutsional va nazorat mexanizmlarining mavjudligiga bog‘liq [5].

Islomiy banklarning moliyaviy barqarorligi va an’anaviy banklardan farqli jihatlari T. Beck, A. Demirgüç-Kunt va O. Merrouche tomonidan empirik jihatdan o‘rganilgan. Mualliflar islomiy va an’anaviy banklarning biznes modellari, samaradorligi, aktivlar sifati hamda barqarorligini qiyosiy tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalari islomiy banklarning ayrim faoliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘ziga xos ustunlik va cheklovlarga ega ekanligini, biroq ularning samaradorligini baholashda banklarning hajmi, institutsional muhiti va boshqa omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Islomiy banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish masalalari Islamic Financial Services Board (IFSB) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, IFSB-17 standartida islomiy bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali tartibga solish va prudensial nazoratni tashkil etishning asosiy tamoyillari belgilangan [1]. Mazkur tamoyillar islomiy banklar uchun kapital yetarliligi, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv va nazorat mexanizmlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar va xalqaro standartlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, islomiy banklarning rivojlanishi faqat moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish bilan chegaralanmaydi. Ularning samarali faoliyati huquqiy muhit, tartibga solish institutlari, korporativ boshqaruv tizimi, moliyaviy infratuzilma va malakali kadrlar mavjudligiga ham bevosita bog‘liq. Jahon banki va Islom taraqqiyot banki hamkorligidagi xalqaro hisobotda moliyaviy inklyuzivlik, risklarni taqsimlash hamda tegishli institutsional muhit yaratish zarurati yoritilgan [12].

Shu sababli O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish masalasini xalqaro tajribani mexanik ravishda ko‘chirish emas, balki milliy bank tizimining institutsional xususiyatlari va amaldagi qonunchilik asosida tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Islomiy banklar bo‘yicha xalqaro tajribada davlat nazorati, likvidlilik va iste’molchilar

huquqlarini himoya qilish mezonlari ham alohida o‘rganilgan [10; 11; 14].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv, ilmiy umumlashtirish va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining islomiy bank faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank materiallari, IFSB standartlari va xalqaro ilmiy nashrlar tashkil etadi.

Qiyosiy tahlil yordamida islomiy banklarni tashkil etishning uchta asosiy modeli — mustaqil islomiy bankni tashkil etish, an’anaviy tijorat bankini islomiy bankka transformatsiya qilish va mavjud bank tarkibida islomiy darcha ochish mexanizmlari o‘rganiladi. Institutsional yondashuv asosida mazkur modellarning huquqiy tartibga solish, kapitalga ehtiyoj, korporativ boshqaruv, prudensial nazorat va moliyaviy xizmatlar bozoriga kirish imkoniyatlari bo‘yicha afzalliklari hamda cheklovlari baholanadi.

Tadqiqotning asosiy metodologik g‘oyasi shundan iboratki, O‘zbekistonda islomiy banklarning rivojlanish samaradorligi faqat moliyaviy resurslar mavjudligiga emas, balki huquqiy, tashkiliy va nazorat institutlarining o‘zaro uyg‘unligiga ham bog‘liq.

Shu asosda islomiy banklarni tashkil etish va rivojlantirishning O‘zbekiston sharoitiga mos institutsional modelini ishlab chiqish tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy vazifasi sifatida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuni 2026-yil 28-martda rasmiy e’lon qilingan va 12-moddasiga muvofiq 2026-yil 29-iyundan kuchga kirgan. Mazkur hujjat “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunlar, Soliq kodeksi va boshqa hujjatlarga islomiy bank faoliyatiga oid o‘zgartirishlar kiritgan. Islomiy bank faoliyatini litsenziyalash, muvofiqlik nazorati va islomiy moliya kengashining vakolatlariga doir tartiblar aynan amaldagi tahrirlarga muvofiq qo‘llaniladi [2]. Soliq kodeksining 480^3–480^6-moddalari islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning maxsus qoidalarini belgilaydi, jumladan ayrim operatsiyalar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda foyda va boshqa soliqlar xususiyatlarini nazarda tutadi [3]. Shu sababli mazkur maqoladagi “islomiy bank” va “islomiy darcha” tushunchalari mustaqil faoliyat yuritish uchun tegishli ruxsat va nazorat talablari bilan birgalikda talqin qilinadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish va rivojlantirish jarayoni mamlakat bank tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy va institutsional islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonning iqtisodiy ahamiyati bank xizmatlari bozorida yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, moliyaviy resurslarni jalb qilish manbalarini diversifikatsiya qilish, tadbirkorlik subyektlarining moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda banklararo raqobatni rivojlantirish bilan belgilanadi. Shu bilan birga, islomiy banklarning barqaror faoliyat yuritishi uchun ularning huquqiy maqomi, korporativ boshqaruv tizimi, prudensial nazorat mexanizmlari va islomiy moliya standartlariga muvofiqligini ta’minlovchi institutsional infratuzilmani shakllantirish talab etiladi.

O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etish borasidagi eng muhim o‘zgarishlardan biri 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonunning qabul qilinishi va 29-iyundan kuchga kirishi bo‘ldi. Mazkur qonun bilan Markaziy bankning islomiy moliya standartlarini tasdiqlash, islomiy bank faoliyatini litsenziyalash va islomiy moliya masalalarini muvofiqlashtirish vakolatlari belgilandi. Shuningdek, islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarning huquqiy

maqomi, moliyaviy operatsiyalari va tashkiliy boshqaruviga oid normalar ishlab chiqildi [2].

Ushbu huquqiy o‘zgarishlarning muhim jihati shundaki, islomiy bank faoliyati milliy bank tizimidan ajratilgan mustaqil moliyaviy muhit sifatida emas, balki umumiy bank qonunchiligi doirasida o‘ziga xos tartibga solish mexanizmlariga ega bo‘lgan faoliyat turi sifatida shakllantirilmoqda. Bu esa Markaziy bank tomonidan yagona bank nazoratini saqlagan holda islomiy moliya operatsiyalarining xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Mazkur tartib banklar faoliyatiga doir amaldagi qonun doirasida qo‘llaniladi: islomiy bank operatsiyalariga maxsus litsenziya talablari, bankning islomiy moliya kengashi faoliyati va tegishli prudensial nazorat talablari tatbiq etiladi [2].

1-jadval

O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etishning asosiy huquqiy va institutsional yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Qonunchilikda nazarda tutilgan mexanizm	Iqtisodiy va institutsional ahamiyati
Islomiy bank faoliyatini litsenziyalash	Markaziy bank tomonidan maxsus litsenziya berish	Bank xizmatlari bozoriga yangi ishtirokchilar kirishini tartibga solish
Islomiy moliya standartlari	Markaziy bankning tegishli standartlarni tasdiqlash vakolati	Moliyaviy operatsiyalarning yagona talablarga muvofiqligini ta’minlash
Islomiy moliya kengashlari	Markaziy bank va banklar darajasida maxsus kengashlar	Islomiy moliya tamoyillariga rioya etilishini muvofiqlashtirish
Islomiy moliya operatsiyalari	Islomiy moliya standartlariga muvofiq bitimlarni amalga oshirish	Muqobil moliyalashtirish mahsulotlarini rivojlantirish
Soliqqa tortish	Islomiy moliya operatsiyalari uchun maxsus soliq tartibi	Moliyaviy bitimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish
Bank nazorati	Markaziy bank vakolatlarini islomiy bank faoliyatiga tatbiq etish	Moliyaviy barqarorlik va prudensial nazoratni ta’minlash

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan asosiy huquqiy institutlar shakllantirilgan. Biroq qonunchilik asoslarining mavjudligi bilan ularning amaliy samaradorligi bir xil tushuncha emas. Islomiy banklarning rivojlanishi mazkur normalarning tijorat banklari faoliyatiga qay darajada joriy etilishi, moliyaviy mahsulotlarning bozor talablariga mosligi va nazorat mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Islomiy bank faoliyatining iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishda soliqqa tortish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. An’anaviy bank kreditidan farqli ravishda, ayrim islomiy moliyalashtirish bitimlarida bank aktivni xarid qilib, keyinchalik mijozga sotadi yoki ijaraga beradi. Bunday operatsiyalarda mulk huquqining o‘tishi va bir necha bitimning amalga oshirilishi soliqqa tortishda qo‘shimcha xarajatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Soliq kodeksining 480^3–480^6-moddalarida islomiy moliya operatsiyalariga soliq solishning o‘ziga xos qoidalari belgilanishi ularning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamdir [3].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda islomiy banklarni rivojlantirishning keyingi bosqichida asosiy e’tibor qonunchilik normalarini amaliyotga joriy etish, islomiy moliya mahsulotlarini standartlashtirish va banklarning institutsional salohiyatini oshirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Xalqaro amaliyotda islomiy bank xizmatlarini joriy etishning bir necha tashkiliy modeli mavjud. Ularning eng muhimlari mustaqil islomiy bankni tashkil etish, mavjud an’anaviy bankni islomiy bankka

transformatsiya qilish va tijorat banki tarkibida islomiy darcha ochishdan iborat. Mazkur modellarning har biri kapitalga bo'lgan ehtiyoj, tashkiliy xarajatlar, bank nazorati, mijozlar bazasi va islomiy moliya standartlariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mustaqil islomiy bankni tashkil etish modeli bank faoliyatini boshidan islomiy moliya tamoyillari asosida shakllantirish imkonini beradi. Bunda bankning aktiv va majburiyatlari, moliyalashtirish operatsiyalari, korporativ boshqaruv tizimi va ichki nazorat mexanizmlari yagona institutsional tuzilma doirasida tashkil etiladi. Ushbu modelning asosiy afzalligi islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni ta'minlashning nisbatan yaxlit mexanizmini yaratishidir. Biroq yangi bankni tashkil etish uchun yetarli kapital, malakali mutaxassislar, axborot texnologiyalari va mijozlar bazasini shakllantirish zarur.

An'anaviy tijorat bankini islomiy bankka transformatsiya qilish modeli mavjud bank infratuzilmasi, filiallar tarmog'i va mijozlar bazasidan foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, bankning amaldagi aktivlari va majburiyatlarini islomiy moliya standartlariga uyg'unlashtirish, moliyaviy shartnomalarni qayta ko'rib chiqish hamda ichki boshqaruv tizimini o'zgartirish bilan bog'liq murakkab vazifalarni yuzaga keltiradi.

Islomiy darcha modeli esa mavjud tijorat banki tarkibida islomiy moliya operatsiyalarini alohida hisob va nazorat mexanizmlari asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur model banklarga mavjud infratuzilmadan foydalangan holda yangi moliyaviy xizmatlarni bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi. Biroq islomiy va an'anaviy operatsiyalar bo'yicha mablag'lar, daromadlar, xarajatlar hamda risklarning aniq ajratilishi talab etiladi.

2-jadval

Islomiy banklarni tashkil etish modellarining qiyosiy tavsifi

Baholash mezonlari	Mustaqil islomiy bank	An'anaviy bankni transformatsiya qilish	Islomiy darcha
Dastlabki kapital va investitsiya ehtiyoji	*Yuqori*	*Mavjud bank resurslariga bog'liq*	*Nisbatan pastroq bo'lishi mumkin*
Mavjud bank infratuzilmasidan foydalanish	*Yangi infratuzilma talab etilishi mumkin*	*Yuqori*	*Yuqori*
Islomiy moliya standartlariga muvofiqlik	*Yagona tizim doirasida tashkil etiladi*	*Mavjud operatsiyalarni moslashtirish zarur*	*Alohida hisob va nazorat talab etiladi*
Tashkiliy murakkablik	*Yangi bankni shakllantirish bilan bog'liq*	*Transformatsiya jarayoni murakkab*	*Ikki turdagi operatsiyalarni ajratish zarur*
Bozorga kirish imkoniyati	*Litsenziya va infratuzilmaga bog'liq*	*Mavjud bank salohiyatiga tayanadi*	*Mavjud bank imkoniyatlariga tayanadi*
Asosiy ustunlik	*To'liq ixtisoslashgan bank modeli*	*Mavjud resurslardan foydalanish*	*Bosqichma-bosqich rivojlanish imkoniyati*
Asosiy cheklov	*Dastlabki xarajatlarning yuqoriligi*	*Aktiv va majburiyatlarni moslashtirish*	*Operatsiyalarni ajratish va muvofiqlik riski*

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida islomiy banklarni rivojlantirishning yagona universal modeli mavjud emas. Tegishli modelni tanlash bankning kapital salohiyati, mulkchilik shakli, mavjud aktivlari, mijozlar tarkibi va boshqaruv imkoniyatlariga bog'liq bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, islomiy darchalar bank xizmatlari bozorida yangi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish, mijozlar talabini o'rganish

va mutaxassislar tayyorlash nuqtayi nazaridan muhim o‘rin tutishi mumkin. Mustaqil islomiy banklar esa uzoq muddatli istiqbolda ixtisoslashgan moliyaviy institutlar sifatida investitsiya resurslarini jalb etish va islomiy moliya bozorini chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotlari likvidlilik instrumentlari tanqisligini islomiy banklarni tartibga solishdagi asosiy masalalardan biri sifatida qayd etadi [13].

Islomiy bank tizimini rivojlantirish bo‘yicha Malayziya tajribasi O‘zbekiston uchun alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Malayziyada islomiy bank faoliyatining rivojlanishi davlat tomonidan huquqiy va institutsional infratuzilmani izchil shakllantirish, bank nazoratini takomillashtirish hamda islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni ta’minlash bilan bog‘liq.

Xususan, Bank Negara Malaysia huzuridagi Shariah Advisory Council 1997-yilda tashkil etilgan bo‘lib, mamlakatda islomiy moliya masalalari bo‘yicha markaziy maslahat va vakolatli organ vazifasini bajaradi. Uning vakolatlari 2009-yilgi Markaziy bank to‘g‘risidagi qonun bilan mustahkamlangan. Mazkur institut islomiy moliya mahsulotlarining tegishli tamoyillarga muvofiqligini ta’minlash, huquqiy noaniqliklarni kamaytirish va moliyaviy institutlar faoliyatida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi [7].

O‘zbekiston Markaziy banki va Malayziya Markaziy banki vakillari o‘rtasida 2026-yil avgust oyida o‘tkazilgan muzokaralarda ham islomiy banklarni litsenziyalash, ikki pog‘onali islomiy moliya boshqaruvi tizimini shakllantirish va prudensial nazoratni rivojlantirish masalalari muhokama qilingan [8]. Bu O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanishga qaratilgan amaliy hamkorlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda islomiy banklarning institutsional rivojlanishini uchta o‘zaro bog‘liq bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda islomiy banklar va islomiy darchalarni litsenziyalash, ularning faoliyatiga oid normativ-huquqiy talablarni amaliyotga joriy etish, islomiy moliya kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Ikkinchi bosqichda islomiy bank mahsulotlari va xizmatlari turlarini kengaytirish, ularning moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlash, likvidlilikni boshqarish instrumentlarini rivojlantirish hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Uchinchi bosqichda esa islomiy banklarning milliy moliya tizimidagi o‘rnini mustahkamlash, xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va investitsiya resurslarini real iqtisodiyotga yo‘naltirish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq.

3-jadval

O‘zbekistonda islomiy banklarni rivojlantirishning taklif etilayotgan institutsional modeli

Bosqich	Ustuvor vazifalar	Kutilayotgan natija
I. Institutsional shakllanish	*Litsenziyalash, standartlar, islomiy moliya kengashlari, kadrlar tayyorlash*	*Faoliyatni boshlash uchun zarur institutsional sharoitlar*
II. Moliyaviy rivojlanish	*Mahsulotlarni kengaytirish, resurslar bazasi, likvidlilik va risklarni boshqarish*	*Islomiy banklarning moliyaviy va operatsion salohiyati mustahkamlanishi*
III. Tizimli integratsiya	*Xalqaro hamkorlik, investitsiyalar, moliya bozori infratuzilmasi*	*Islomiy banklarning milliy moliya tizimidagi o‘rni kengayishi*

Shu bilan birga, 2026-yil oktabr oyida O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini litsenziyalashning dastlabki amaliy natijasi kuzatildi. Markaziy bank Boshqaruvining 2026-yil 23-oktabrdagi 28/1-sonli qaroriga muvofiq, «Open Bank» aksiyadorlik jamiyatiga islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi 1-I-sonli litsenziya berilgani 26-oktabr kuni e’lon qilindi [9]. Mazkur voqea islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishdan amaliy litsenziyalash bosqichiga o‘tilayotganini ko‘rsatadi. Biroq litsenziya berilishi bankning barcha rejalashtirilgan islomiy moliya mahsulotlari amalda ishga tushirilganini anglatmaydi. Mazkur ma’lumot 2026-yil 26-oktabrdagi xabarda e’lon qilingan bo‘lib, uning asosiy manbasi Markaziy bank qaroridir [9].

O‘tkazilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonda islomiy banklarni rivojlantirishning asosiy sharti huquqiy, tashkiliy va moliyaviy institutlar faoliyatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashdan iborat. Islomiy banklarni tashkil etish jarayonida litsenziyalash, korporativ boshqaruv, moliyaviy resurslarni jalb qilish, prudensial nazorat va islomiy moliya standartlariga muvofiqlik mexanizmlarining birgalikda rivojlantirilishi ularning uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim asos yaratadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida O‘zbekiston bank tizimida islomiy banklarni rivojlantirishning uch bosqichli institutsional modeli taklif etiladi. Ushbu modelning o‘ziga xos jihati islomiy banklar faoliyatini faqat yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali emas, balki huquqiy tartibga solish, korporativ boshqaruv, prudensial nazorat va moliyaviy infratuzilmani o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish asosida tashkil etishni nazarda tutishidir.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar milliy bank tizimini diversifikatsiya qilish, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish, iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiya resurslarini jalb etish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida islomiy banklarning samarali faoliyat yuritishi nafaqat tegishli huquqiy asoslarning mavjudligiga, balki ularni amaliyotga joriy etish, institutsional infratuzilmani shakllantirish, korporativ boshqaruv va prudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga ham bevosita bog‘liqligi aniqlandi. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgani milliy bank tizimi rivojlanishida yangi institutsional bosqichni boshlab berdi. Xususan, 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonunning qabul qilinishi islomiy banklarni litsenziyalash, ularning moliyaviy operatsiyalarini tartibga solish va islomiy moliya standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun huquqiy sharoit yaratdi. Biroq qonunchilik bazasining shakllantirilishi islomiy banklarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. Buning uchun huquqiy normalarni samarali institutsional mexanizmlar bilan to‘ldirish zarur.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba islomiy banklarni rivojlantirishda yagona universal tashkiliy model mavjud emasligini ko‘rsatadi. Mustaqil islomiy banklarni tashkil etish, an’anaviy banklarni transformatsiya qilish va islomiy darchalarni joriy etish modellarining har biri o‘ziga xos afzallik hamda cheklovlarga ega. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida mazkur modellardan foydalanishda banklarning kapital salohiyati, mulkchilik shakli, mavjud infratuzilmasi, mijozlar bazasi va institutsional tayyorgarlik darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, islomiy banklarning barqaror rivojlanishida moliyaviy resurslar bazasini shakllantirish, likvidlilikni boshqarish, risklarni baholash va korporativ boshqaruv mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Islomiy moliya operatsiyalarining an’anaviy bank mahsulotlaridan farqli xususiyatlari mavjudligi sababli bank nazorati amaliyotida xalqaro islomiy moliya standartlarini milliy prudensial talablar bilan uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga keladi.

To‘rtinchidan, islomiy banklarning rivojlanishi moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish va iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Xususan, murobaha, ijara, mushoraka va muzoraba kabi moliyalashtirish instrumentlari tadbirkorlik subyektlarining turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq mazkur instrumentlarning amaliy samaradorligi ularning huquqiy aniqligi, iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va risklarni to‘g‘ri taqsimlash mexanizmlariga bog‘liq.

Beshinchidan, islomiy banklarni rivojlantirishda xalqaro tajribadan foydalanish bilan bir qatorda milliy bank tizimining institutsional xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Xususan, Malayziya tajribasi islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni ta’minlovchi markazlashgan institutsional mexanizmlar, samarali bank nazorati va malakali kadrlar tayyorlash tizimining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish va rivojlantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif. O‘zbekistonda islomiy banklarni rivojlantirishning uch bosqichli institutsional modelini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur modelning dastlabki bosqichida islomiy banklarni litsenziyalash, normativ-huquqiy bazani amaliyotga tatbiq etish va islomiy moliya standartlariga muvofiqlik tizimini shakllantirish; ikkinchi bosqichida moliyaviy mahsulotlar turlarini kengaytirish, resurslar bazasi va likvidlilikni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish; uchinchi bosqichida esa islomiy banklarning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirish va investitsion faoliyatini kengaytirish nazarda tutiladi.

Ikkinchi taklif. Tijorat banklarining institutsional va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, islomiy bank faoliyatini tashkil etishning differensiallashgan yondashuvini qo‘llash tavsiya etiladi. Bunda yetarli kapital va tashkiliy salohiyatga ega investorlar tomonidan mustaqil islomiy banklarni tashkil etish, mavjud banklarda esa tegishli qonunchilik va litsenziya talablari asosida islomiy darchalarni joriy etish yoki banklarni bosqichma-bosqich transformatsiya qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish lozim.

Uchinchi taklif. Islomiy banklar faoliyatini prudensial tartibga solishda IFSB xalqaro standartlaridan foydalangan holda kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar sifati va risklarni boshqarishga oid talablarni milliy bank nazorati tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bunda islomiy moliyalashtirish operatsiyalarining shartnomaviy xususiyatlari, aktivlar bilan ta’minlanganligi va risklarni taqsimlash mexanizmlari alohida hisobga olinishi kerak. Xalqaro prudensial talablar milliy normativ hujjatlarni avtomatik almashtirmaydi; ularni bank tizimining mahalliy xususiyatlariga moslashtirish talab etiladi [1; 10].

To‘rtinchi taklif. Islomiy banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida ularning likvidlilikni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, islomiy moliya tamoyillariga muvofiq qisqa muddatli likvid aktivlar va moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu islomiy banklarning to‘lovga qobiliyatliligini ta’minlash va likvidlilik

risklarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchi taklif. Islomiy banklar faoliyatida korporativ boshqaruv va islomiy moliya standartlariga muvofiqlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, islomiy moliya kengashlarining mustaqilligi, a’zolarining kasbiy malakasi, qarorlarining shaffofligi va ichki nazorat tizimi bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Oltinchi taklif. O‘zbekistonda islomiy bank xizmatlariga bo‘lgan real talabni muntazam o‘rganish va moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida Markaziy bank, tijorat banklari va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi. Bunda islomiy bank mahsulotlarining iqtisodiy mazmuni, narx shakllanishi, risklari va an’anaviy bank xizmatlaridan farqli jihatlarini tushuntirishga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va shartnomaviy xatarlarni ochiq tushuntirish masalalari xalqaro tahlillarda ham ta’kidlangan [14; 15].

Umuman olganda, O‘zbekistonda islomiy banklarni tashkil etish va rivojlantirishning istiqbollari huquqiy, institutsional va moliyaviy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Tadqiqot doirasida taklif etilgan uch bosqichli institutsional model, islomiy banklarni tashkil etishning differensiallashgan yondashuvi hamda prudensial nazorat va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar milliy bank tizimida islomiy moliyaviy xizmatlarni barqaror rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islamic Financial Services Board. Core Principles for Islamic Finance Regulation (Banking Segment): IFSB-17. — Kuala Lumpur: IFSB, 2015. — ISBN 978-967-5687-44-0. — URL: https://www.ifsb.org/wp-content/uploads/2023/10/IFSB-17-Core-Principles-for-Islamic-Finance-Regulation-Banking-Segment-December-2015-final.pdf

2. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida: 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonun (2026-yil 29-iyundan kuchga kirgan). — URL: https://lex.uz/uz/acts/-8099403

3. O‘zbekiston Respublikasi. Soliq kodeksi: 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-sonli Qonun bilan tasdiqlangan (amaldagi tahrir), 480³–480⁶-moddalar. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-4674902

4. Chapra M. U. Towards a Just Monetary System: A Discussion of Money, Banking, and Monetary Policy in the Light of Islamic Teachings. — Leicester: The Islamic Foundation, 1985. — 292 p.

5. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. — 2nd ed. — Singapore: John Wiley & Sons (Asia), 2011. — XIV, 406 p. — DOI: 10.1002/9781118390474.

6. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O. Islamic vs. Conventional Banking: Business Model, Efficiency and Stability // Journal of Banking & Finance. — 2013. — Vol. 37, No. 2. — P. 433–447. — DOI: 10.1016/j.jbankfin.2012.09.016.

7. Bank Negara Malaysia. Shariah Advisory Council of Bank Negara Malaysia. — Rasmiy ma’lumot. — URL: https://www.bnm.gov.my/committees/sac

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Prospects for Cooperation with Malaysia on the Development of Islamic Finance. — 2026. — 27 August. — URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/4420427/

9. First Islamic Banking License Issued in Uzbekistan // Yuz.uz. — 2026. — 26 October. — URL: https://yuz.uz/index.php/en/news/first-islamic-banking-license-issued-in-uzbekistan

10. Kammer A., Norat M., Piñón-Farah M. A., Prasad A., Towe C. M., Zeidane Z. Islamic Finance: Opportunities, Challenges, and Policy Options. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2015. — 38 p. — (IMF Staff Discussion Note; SDN/15/05). — DOI: 10.5089/9781498325035.006.

11. Hussain M., Shahmoradi A., Turk R. An Overview of Islamic Finance. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2015. — 35 p. — (IMF Working Paper; WP/15/120). — DOI: 10.5089/9781513590745.001.

12. World Bank Group, Islamic Development Bank Group. Islamic Finance: A Catalyst for Shared Prosperity? Global Report on Islamic Finance. — Washington, DC: World Bank, 2017. — 252 p. — ISBN 978-1-4648-0926-2. — URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/628081489782181707/pdf/Islamic-finance-a-catalyst-for-shared-prosperity.pdf

13. Basu R., Prasad A., Rodriguez S. L. Monetary Operations and Islamic Banking in the GCC: Challenges and Options. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2015. — 27 p. — (IMF Working Paper; WP/15/234). — DOI: 10.5089/9781513588513.001.

14. Lukonga I. Islamic Finance, Consumer Protection, and Financial Stability. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2015. — 39 p. — (IMF Working Paper; WP/15/107). — DOI: 10.5089/9781513515106.001.

15. Lukonga I. Q&A: Seven Questions on Islamic Finance // IMF Research Bulletin. — 2015. — Vol. 16, No. 2. — P. 6–9. — DOI: 10.5089/9781513500041.026.A003.